

dunyo standartlarida rivojlanib taraqqiyod qilmoqda. Ohirgi yillarda ishlab shiqilgan filmlar “Ajiniyaz” nomli badiiy publisistik film shunga aniq misol bola oladi. Filmda ozovlashtirish va musiqa shovqimlar bezagi yuqori darajada

ishlangan va tomoshabinlar bu filmni yaqshi kutib oldi. Film yaratilish mobaynida jonli yozib olingan tovushlar, Ajiniyoz yashab otgan yoshlik davlrari atmosferasi nafaqat korinishidan balki ovoz jihatdan yahshi ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Деникин А.А. *Звуковой дизайн в кинематографе и мультимедиа*. – Москва: Изд-во АСТ, 2018.
2. Holman T. *Sound for Film and Television*. – Focal Press, 2010.
3. Rumsey F., McCormick T. *Sound and Recording: Applications and Theory*. – Routledge, 2014.
4. Dolby Laboratories. *Dolby Digital Technical Guide*. – San Francisco, 2005.
5. Sony Corporation. *SDDS Overview*. – Tokyo, 2003.
6. IMAX Corporation. *IMAX Sound System Whitepaper*. – Toronto, 2008.

REZYUME. Maqolada XX–XXI asr boshida ovoz dizayni rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va ular kino hamda teatr san’atiga ko’rsatgan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX kabi ko’p kanalli audio tizimlarning shakllanishi ovoz muhitining badiiy-estetik qiyofasini tubdan o’zgartirib, tomoshabin idrokiga yangi dramaturgik imkoniyatlar olib kiritgani asoslanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar tufayli ovoz dizaynida mustaqillik, “DIY” konsepsiyasi, shuningdek internet orqali tovush materiallari bilan ishlash jarayonining soddalashgani ko’rsatiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется развитие звукового дизайна в конце XX – начале XXI вв., внедрение цифровых технологий и их влияние на кино и театральное искусство. Появление многоканальных аудиосистем, таких как Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX, кардинально изменило художественно-эстетический облик звуковой среды и привнесло новые драматургические возможности в восприятие зрителя. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий в формировании концепции «DIY» (сделай сам) и упрощению работы с аудиоматериалами посредством интернета.

SUMMARY. This article examines the development of sound design in the late 20th and early 21st centuries, focusing on the implementation of digital technologies and their impact on cinema and theatrical arts. The emergence of multichannel audio systems such as Dolby Digital, DTS, SDDS, and IMAX has fundamentally transformed the artistic and aesthetic dimension of the sound environment, introducing new dramaturgical possibilities for audience perception. Particular emphasis is placed on the role of digital technologies in shaping the “DIY” concept and simplifying access to audio materials through the internet.

JADID DRAMATURGIYASINING MILLIY TEATR SAN’ATI RIVOJIDAGI O’RNI VA NAZARIY ASOSLARI

Barno Nurmanova – dotsenti v.b., san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Musiqali teatr san’ati” kafedراسi

Tayanch so’zlar: jadid, dramaturgiya, teatr, janr, komediya, drama, ma’rifatparvarlik.

Ключевые слова: джаиды, драматургия, театр, жанр, комедия, драма, просветительство.

Key words: jadids, drama, theatre, genre, comedy, drama, enlightenment.

Abdulla Qodiriy milliy dramaturgiyani alohida, ayni paytda murakkab adabiy tur deb hisoblaydi va u bilan qo’lida qalami bor har qanday kishi ham shug’ullana olmasligini aytadi. Adib muammoning ayni shu jihatlariga yechim axtaradi. Teatr uchun maxsus yozilgan asarlar, bu sohaga begona kishilar tomonidan emas, balki, o’z egalari, ya’ni, dramaturglar tomonidan amalga oshirilishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Ammo milliy dramaturgiya hali tetapoya qadamlarini qo’yib, maydonga chiqib kelayotgani bois, teatr

risolalari yozadigan ijodkorlar aniq malakaga ega emasligini anglagani bois: birining yozganida xalq turmushidan yaxshi mavzu topilsa, badiiy talqini zaif; boshqasirikida to’g’ri talqini topilsa, mavzudan begonalashuv borligini eslatadi. Bu nihoyatda aniq va dolzarb masalalar tahlili edi. Bunday maqolalar milliy teatr nazariyasini yanada takomillashtiradi. Sahnalashtirilgan komediya sirtidan qaraydigan tomoshabinga nihoyatda yengil janrga o’xshab tuyuladi, aslida esa eng qiyini kulguli asar yaratishdir. Dramaturgiyada haqiqiy

kulgili voqeani shakl va mazmun birligida yozish muallifdan katta mahorat talab etadi. Jahon teatri tajribasida komediyaning ikki asosiy turi – holatlar komediyasi va xarakterlar komediyasi keng ommalashgan. Qodiriy yashagan davrda – drama, opera, musiqali drama, komediya atamasi orqali izohlangan, havaskorona yozmlgan pyesalar janr mezonlariga to‘la muvofiq bo‘lmagani uchun e’tirozli fikrlarga asos bo‘lgan. Qodiriyning komediya janri va unda xarakter yaratishga oid qarashlari hamon ahamiyatini yo‘qotmagan. Teatrshunoslarning bu boradagi fikrlariga qo‘shilish mumkin.

Qodiriy kulgini quyidagi uch turga – mutoyiba, hajv (yumor) va satiraga bo‘ladi. “Shu uch turluk kulguni ifoda qilishda yordamchi xizmatini o‘tag‘uchi unsurlar – hazil, kinoya, mubolag‘a, tasfir, tashbiya, tamsil, xalq maqollari ta‘birlari va shunga o‘xshash gaplar” deya sharh beradi. “Yo‘zishg‘uchilarimizg‘a”, ya‘ni, sahna uchun yozadigan dramaturglarga nomli maqolasida esa kulgining bosh omili – “Adabiyotda bir necha xil kulgi yo‘llari bo‘lsa ham (masalan: piching, kesatish, kinoya, tag‘oful va boshqalar...), lekin eng mo‘tabari xarakter kulgisidir”, [1.] deb inson saviya bilan bog‘liq holda tug‘iladigan kulgini barchasidan afzal ko‘radi. Nazariyotchi Qodiriyning bu fikriga to‘liq qo‘shilamiz, chunki, komediya janridagi personajning xarakteri topilsa, sahnadagi kulgili holatlar tabiiy ravishda yuzaga keladi. Abdulhamid Cho‘lponning – “Yorqinoy” pyesasi o‘zbek teatri tarixining taraqqiyot bosqichida dramatik janrdagi asarlar sahnalashtirilishini boshlab berdi, deb hisoblaydi teatrshunos olim T.Tursunov. “Pyesa boshda ikki pardali bo‘lib, teatr uni 1921-yili sahnalashtirgan edi. Cho‘lpon shu asarini Moskvada qayta ishlab, “olti pardalik afsonaviy tomosha” — katta hajmdagi sahna eposiga aylantiradi. Pyesani Uyg‘ur sahnaga qo‘yadi. Spektaklda Yorqinoy rolini – Zamira Hidoyatova va Kal rolini – Yetim Bobojonov ijro etishadi”, [2.B.91.] deya adibning dramatik janrdagi bu asariga yuksak baho beradi. Haqiqatan ham, Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasi o‘z davri uchun katta yangilik bo‘lib, drama janri rivojiga katta hissa qo‘shgan asarlardan biri edi.

Asrlar davomida jamiyat hayotida tomir otib ulgurgan jaholatni birdaniga yo‘q qilishning imkonsiz edi. Shu sababli teatrdagi islohotni jadidlar birinchi navbatda bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor berishdan, ularda kelajakka ishonch, vatanga muhabbat, qalblariga ezgulik tuyg‘ularini singdirib, ma’rifatparvarlik g‘oyasini hayotlariga tadbiiq etishdan boshlash lozim edi. Bolalarni ma’nan boy qilib tarbiyalashda yangi shakldagi

teatrning xizmati beqiyos ekanligini anglagan dramaturg – G‘ulom Zafariy edi. Adib, bolalar hayotidan olingan, zamon ruhidagi, tarbiyalovchi xarakterdagi kichik sahna asarlari yoza boshladi. Dramaturgning – “Tuyg‘unoy”, “Erk bolalari”, “Bahor”, “To‘sqinchilik”, “Gunafsha”, “Rahimli shogird”, “Quyvon”, “Tilak”, “Tatimboy ota”, “Mozorlikda” kabi asarlari bolalar uchun mo‘ljallangan pyesalardir. Ushbu pyesalar dastlab havaskorlik sahnalarida, keyinroq, professional teatrlarida namoyish qilindi. Demak, G‘ulom Zafariy bolalar uchun atalgan pyesalari bilan milliy bolalar dramaturgiyasiga tamal toshgan adibdir. Xalqning ilm olishi yo‘lida jonkuyarlik ko‘rsatgan jadidlar xotin-qizlarning ilm olishlariga ham jiddiy e’tibor qaratdilar. Sababi, millat farzandlarining kelajagi onalarning qo‘lida ekanligini jadidlar teran anglagan edilar. Ular ilm-ma’rifatli onalar tarbiyalagan farzandlar jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlariga ishonganlar. G‘ulom Zafariyning – “Tilak” pyesasida xuddi shu g‘oya ilgari surilgan edi.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 4-oktabr sonida davlat teatrining bir kunlik namoyish rejasi haqida quyidagi bildirish berilgan. O‘zbekcha teatru 1919-yil 4-oktabr, shanba kuni “Turon” sahnasida Artistlar soyuzi tarafidan sahnaga quyilur:

1. “Tilak” bir pardali ilmiy-axlokiy pyesa. Yozuvchi: G‘ulom Zafariy.
2. “Yomon o‘g‘il”. Rahimsiz o‘g‘ilning xolin ko‘rsatuvchi manzara. Yozuvchi – G‘ulom Zafariy.
3. “Rahimli shogird”. Rahimli shogirdni tasvir etuvchi o‘pera holinda manzara. Yozuvchi – G‘ulom Zafariy.
4. DeklamatsiY. Mashhur shoirimiz Fitrat afandining asarlaridan o‘qilur.
5. “Fanniy uy”. Maqtanchok, johil kishilarning fan to‘g‘risida anglovlarin tasvir qiluvchi bir pardali kulgu (komediya). Yozuvchi – Uyg‘ur.
6. “Turkiston tabibi” nomi orqasinda qilg‘on muolajalarin ko‘rsatuvchi bir pardali kulgu (komediya). Yozuvchi Uyg‘ur”. [3.B.28.]

Dramaturg G‘ulom Zafariy o‘z pyesalari orqali jamiyat rivoji uyaun dolzarb bo‘lgan qahramon tasvirini pyesaning bosh qahramoni – Murod obrazi orqali ifodalaydi. Ma’rifatga intiluvchi Murod jamiyatning rivojlanishi uchun – unda yashovchi kishilar ilmi bo‘lishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Asar xotin-qizlarni ilm olishga da’vat qilib, ular ilm-ma’rifatli bo‘lmasalar, jamiyatning yarmi savodsiz bo‘lib qolishi xavfini alohida ta’kidlaydi. “Turon” teatri truppassi komediya asarlari orqali jamiyat rivojiga

to'siq bo'layotgan voqea-hodisalarni, kishilarda mavjud illatlarni satira ostiga olinib tomoshabinlarga namoyish etish lozim deb hisoblaydi. Hoji Mu'in Shukrullaning "Ko'knori" (1914-y.) va Abdulla Avloniyning "Finak" ("Pinak" 1915-y.) asarlari mavzusi o'z davrida ildiz otgan qimorbozlik va bangilik muammosini qamrab olgan pyesalar edi. "Ko'knori" va "Finak" komediyalarining nomlanishidanoq gap nima haqida borishi aniq. Lekin har qaysi dramaturg masalaga o'zicha yondashadi. A.Avloniy ko'knorixo'rlilik va qimorbozlikni jamiyat illati, millat inqirozi ekanligiga ko'proq urg'u bergan bo'ladi. Hoji Mu'in ko'knorixo'rlarning hayotini to'laligicha ko'rsatish bilan birga ularning tilidan o'sha davr siyosiy hayoti, millat ahvoriga qarashlarini ham ifoda qiladi". [4.B.21.] Demak, dolzarb mavzularni komediya janri orqali namoyish qilish an'anasi boshlangan.

"Ko'knori" hamda "Finak" komediyalari haqida o'sha davr matbuoti tahliliy maqolalar e'lon qilgan. Bu pyesalar tahlili orqali jadidlar o'z ijodi bilan teatr san'atining yana bir janriga asos solgan deyish asosli bo'ladi.

Millat madaniyatining yirik bir bo'lagi bo'lgan jadidlar dramaturgiyasi shunday mushkulot va muammolarni yengib tizimli ravishda kelajak sari ildamlab bordi. 1920–1930-yillar oralig'ida jadidlar teatrlarining ijodiy qiyofasi shakllanib, havaskorlik truppalari asosida, birin-ketin davlat maqomidagi teatrlar yuzaga keldi. Bunday o'zgarishlar yoshlar orasidan ijodkorlarning yangi avlodi – dramaturglar, aktyorlar, rejissyorlar yetishib chiqishiga, ularning ijodiy muvaffaqiyatlarga yo'l ochdi. Natijada, teatr repertuarida mazmunan mafkuraviy o'zgarishlar kuzatila boshladi. Bunga bir jihatdan mahalliy dramaturglar ancha tajribaga ega bo'lgani, ikkinchi tarafdin jahon dramaturgiyasining saralarini tarjima va tabdil qilib, sahnalashtirib, xalqqa taqdim etish an'anasining boshlangan edi. Lekin yangi tuzum o'z mafkurasi talablariga qat'iy amal qilishga majburlashni boshlab yuborganligini hali to'liq anglab yetmagandilar.

Ma'rifatparvar jadidlarning millatni rivojlangan xalqlar qatoriga ko'tarish g'oyasi; maktablar islohoti; milliy matbuotni yaratgani; dramaturglarning milliy teatr san'atiga olib kirgan

yangiligi; adabiyotdagi rivoj jarayoni mavjud hukumat tomonidan inkor qilina boshlandi. Bunday sinovli kunlarda ham ular o'z e'tiqodi va g'oyasiga sodiq edi.

Jadidlar ta'ziqqa uchray boshlaganiga qaramay o'zining g'oyasini keng targ'ib qilishdan to'xtamadilar. Masalan, Avloniy "Advokatlik osonmi?" komediyasini shov-shuvli voqea bo'ldi Munavvarqori Abdurashidxonov – "Barchamizga yaxshi ma'lumki, Turkiston tillarida biror spektakl o'ynalmagan, shuning uchun ayrim odamlar teatrga yengil ko'ngil yozish sifatida qaraydi. Aslida teatrning mazmuni "Olish" yoki "Buyuklar maktabi" demakdir. Teatr sahnasi barcha tomondan shishalangan xonaga o'xshaydi, unga kim kirsam, o'z go'zalligi va xunukligini, kamchilik va yutuqlarini ko'rib, ibrat oladi" [5.B.72.] – deydi kuyunchaklik bilan. Bunday targ'ibdan ilhomlangan 1920-yildan boshlab sahnalashtirilgan – "Xasis", "Ikki boyga bir malay", "Makr va muhabbat", "Iblis", "Revizor", "Malikai Turandot" kabi spektakllar ta'sirida yanada takomillashdi va milliy teatr shuhratini olamga taratdi. Shunga qaramay mavjud mafkura ular ijodini milliy mahdudlik, arxaika, naturalizm, formalizm, havaskorlik deb qoraladi va birin-ketin aybnomalar topib tarix sahifalaridan olib tashlay boshladi.

Xulosa shuki, jadidlar yaratgan dramaturgiya – yevropacha shakldagi yangi o'zbek teatriga asos bo'ldi. Ular – tragediya, komediya va drama janrlari asosida zamonasining eng dolzarb masalalarini badiiy shaklda yozdi hamda sahnalashtirdi. Teatrlar sahnalarida bolalar mavzusi, yoshlar muammolari, opera – musiqali teatr masalalari, xalqning dardini ifodalagan – dramalarda, rivojlanishga to'siq bo'layotgan illatlar tahlillari – komediyalarda mavjud edi. Barcha janrlarda sahnalashtirilgan spektakllar tahlili – milliy dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atiga nazariy hamda g'oyaviy asos bo'ldi. Bu asos sahnaviy obraz yaratish masalasiga tamal toshini qo'ydi. Bugungi kunda jadidlar fidoiyligi hamon "sotsrealizm" qo'ygan tamg'a asosida baholanayotgani achinarli hol. Bizningcha jadidlar yaratgan dramaturgiyaning va ulardagi personajlar obrazlarini, har bir janrga xos xususiyatlarini alohida-alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. Yozishg'uchilarimizg'a. Ishtirokiyun, 1925.
2. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. -T.: Art press, 2010.
3. Usmonov O. Bolalar dramaturgiyasining asoschisi. // Teatr, 2015. 1 son.
4. Qodirova S. Ilk o'zbek yozma komediyalari. // Teatr, 2013. 4-son. 21-b.

5. Salamov Sh. G'oyalar jangi XIX-XX asr Turkiston va Janubiy Kavkaz. -T.: Istiqlol nuri. 2017.

REZYUME. Ushbu maqola XX asr boshlarida jadidlar harakati davridagi o'zbek dramaturgiyasining milliy teatr san'ati shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni hamda nazariy asoslarini tahlil qiladi. Maqola jadidlar yaratgan dramaturgiyaning yevropa tipidagi yangi o'zbek teatriga mustahkam asos bo'lganligini va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab turganligi haqida muhim xulosalar beradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется роль и теоретические основы узбекской драматургии периода джадидского движения в начале XX века в формировании и развитии национального театрального искусства. В статье делается вывод о том, что драматургия, созданная джадидами, стала прочной основой для нового узбекского театра европейского типа и до сих пор сохраняет свою актуальность.

SUMMARY. This article analyzes the role and theoretical foundations of Uzbek drama during the Jadid movement in the early 20th century in the formation and development of national theatre art. The article concludes that the drama created by the Jadids served as a solid foundation for the new European-style Uzbek theatre and still retains its relevance today.